
Farg'onada Bosh vazir o'rinbosari Zulayho Mahkamova ishtirokida "Oqila ayollar" harakati faollari oldida turgan vazifalar kelishib olindi

Bugun Farg'ona shahrida Bosh vazir o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi va shahar-tuman bo'limlari rahbarlari, ularning qoshida tashkil etilgan "Oqila ayollar" harakati a'zolari ishtirok etdilar.

Joriy yilning 1 mart kuni davlatimiz rahbarlari tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida joylarda obro'-e'tiborli, katta tajribaga ega faollardan iborat «Oqila ayollar» harakatini tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan edi. Bugungi tadbirda ushbu tashabbus jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratishda, ezgu g'oyalar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, muqaddas an'analarni jamiyatga singdirishda, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda muhim qadam bo'lganligi qayd etildi.

2022-11-04 23:33:54